

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**TARIX DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH
MUAMMOLARI**

Mirova Zilola Toirovna

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

17-son maktabning tarix fani o'qituvchisi

Xo'jayeva Dilnoz To'lqinovna

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

17-son maktabning tarix fani o'qituvchisi

Sharipova Shahnoza Odilovna

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

17-son maktabning tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix darsining ahamiyati haqida va uning o'quvchilar mustaqil fikrlashiga naqadar ahamiyatli ekanligi haqidagi ilmiy ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Ilmiy fikrlar faktlarga asoslanib xulosalanadi.

Kalit so'zlar: jamiyat, tarix, fuqaro, demokratiya, fuqarolik jamiyat, bola, ijtimoiylik, tabiiylik, tarbiya, islohot, tadbir, o'quvchi, vazifa, matn.

Biz fuqarolik demokratik jamiyat quryapmiz, Bu jamiyatda yashovchi har bir fuqaro mustaqil fikrlay olishi kerak. Fuqarolik jamiyatida bolalar, umuman har inson mustaqil, erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rzanmasa, berilgan ta'lim samarasini past bo'lishi muqarrar

Mustaqil fikrlash katta boylik . O'quvchilarini shu boylikka ega qilish bizning eng muhim vazifalarimizdan biridir. Shundan kelib chiqib, men o'z pedagogik faoliyatimda o'zimning asosiy e'tiborimni quyidagilarga qarataman;

1. O'quvchining mustaqil fikrlay olishiga erishish.
- 2.O'qitish jarayonida o'quvchilar bilan hamkorlik qila olish.
- 3.Darsda va darsdan tashari vaqtarda o'quvchilar faoliyatini oshirish,
- 4.O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish,
- 5.Tarix va huquqshunoslik darslariga o'quvchilar qiziqishini o'stirish.

Men o'z pedagogik faoliyatimda "O'quvchining bosh vazifasi o'quv jarayonida mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat" degan shiorga amal qilaman. Hozirgi davrda o'quvchilarning bilim va amaliy ko'nikmalarini muntazam egallab borishlariga erishish o'qituvchining vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifani o'quvchilarning mustaqil ishlarisiz hal etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham men dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlariga alohida e'tibor beraman,

O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishning metodik usullari xilma-xildir, Mustaqil ish sinfda va uyda sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida ham bajariladi,

O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi muhim qoidalar kuzda tutiladi.

1. Mustaqil ishlarning o'quvchilar aqliy faoliyati bilan bog'liqligi,
2. Mustaqil ish toshpiqlarining aniq, maqsadli bo'lishi, ularning bajarilishi shartlari, o'quvchilarni fikrlashga, izlanishga undashi.
3. Mustaqil ish bajarishda ijodiylikning kuchayishi.

Mustaqil ish darsning barcha bosqichlarida, yangi materialni

tushuntirishda, uni mustahkamlashda, o'tilgan materiallarni takrorlashda, sinov topshiriqlarini bajarishda amalga oshirilishi mumkin. O'qutuvchining vazifasi sinf o'uvchilarining ish faoliyati ustidan nazorat qlish, ular mustaqil ishni ongli bajarishlariga erishishi lozim. Mustaqil ishlarni tashkil qilishda o'qituvchi va o'quvchining hamkorlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining rahbarlik roli shunga qaratilgan bo'lishi lozimki, o'quvchi dars jarayonida u yoki bu masala yuzasidan fikr-mulohazalar yuritsin, o'ylab ko'rsin, o'z fikrini bayon qiilsin, xulosalar chiqarsin.

O'quvchilarga darsda yangi ma'lumot berish jarayonida o'qituvchining bayoni oldindan belgilab qo'yil savollar yordamidagi suhbat bilan qo'shib olib borilsa, o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun katta imkoniyat tug'iladi. Bunda, o'qituvchi butun dars davomida shu faollikni saqlashi va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini kuzatib borishi lozim. Shu tarzda dars, boshidan oxirigacha o'quvchilarning faol ishtirok etishlari va o'qituvchining savollariga mustaqil javob berishlari asosida o'tadi. Lekin o'qituvchining savollar o'ta soddalashtirilib yuborilmasligi kerak, aks holda o'quvchilarining mustaqil fikrlashlari uchun imkoniyat kamayadi. O'qituvchi tomonidan beriladigan savollar darsda o'quvchilar aqliy faoliyatini faollashtiruvchi va ularni mustaqil fikrlashga jalg etish vositalaridan biridir. Shuning uchun ham o'qituvchining savollar ta'limiy va izlanuvchanlikka undaydigan, mazmunan aniq, shaklan qisqa, o'quvchilarga tushunarli bo'lishi kerak. O'quvchilarning javoblari esa ongli, to'liq vamustaqil bo'lishi lozim. O'quvchilar savollarga javob berishda hamma vaqt ham o'rganilayotgan materialning barcha tomonlarini to'liq ochib bera olmaydilar. Bunday vaqtarda asosiy savollar bilan birga qo'shimcha savollardan ham foydalanishga to'g'ri keladi. Yordamchi savollar ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi, berilgan savolga javob berishda ochilmay qolgan o'rirlarni to'ldirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Shuning uchun bunday savollar o'qituvchi tomonidan sharoitni hisobga olgan holda beriladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, o'quvchilarda tarixga oid bilim va malaka-larni vujudga keltirish jarayonining hamma tarkibiy qismlarini bir darsning o'zida amalga oshirib bo'lmaydi, Bu ishda o'quvchilarning mustaqil mutolaasi, darsdan tashqari mashg'ulotlar katta ahamiyatga ega.

O'quvchilarga tarix fanidan eng muhim manba-darslikdir. Undan tashqari hujjatlar bilan ishslash, badiiy, tarixiy adabiyotlardan foydalanish, mavzuga oid

referatlar yozish, tarixiy mavzularda kechalar, ma'lum bir mavzuda munozaralar o'tkazish ham o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish vositasi hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilarga darslikdagi savol va topshiriqlarni muntazam bajarishga odatlantirish orqali mustaqil ravishda aqliy faoliyat bilan shug'ullani-shni, tarixiy hodisalarni taqqoslab ko'rishni, tushunchalarni umumlashtirishni, ijtimoiy hodisalar sabablarini aniqlashni, asosiy bo'lмагan sababdan ajratishni, to'g'ri xulosa chiqarishni, xulosalarni asoslab berishni o'rgatib borishi kerak. O'quvchilar o'qituvchi bergen topshiriqni bajarish jarayonida mustaqil holda izlanadi, fikr yuritadi, Eng muhim mustaqil fikrlashga o'rganadi.

O'qituvchi o'quvchi fikrini tinglashi, so'ngra esa uning kamchiliklarini muhokama qilish jarayonida sinf o'quvchilarini bahsga chorlashi yaxshi natija beradi. Fikr - mulohaza baxs jarayonida tug'iladi. Sinfdag'i barcha o'quvchilarini bahsga chorlash, ularni rag'batlantirib turish, o'quvchilarini cho'chimay uz fikrini ochiq aytishga, erkin fikr bildirishga, o'z fikrini asoslab berishga - ijodiy fikrlashga olib keladi.

O'qituvchi qo'llaydigan metodik usullar o'quvchi fikrlash qobiliyatining o'sishida muhim ahamiyatga ega. Bitta tarixiy mavzuni turli xil metodik usul, vositalar bilan ochib berish mumkin. Masalan: o'qituvchi og'zaki bayon usulidan, ko'rgazmali ta'lim usulidan, matn bilan ishlash, muammoli vaziyat yaratish, qiyosiy tahlil usullaridan, noan'anaviyusullardan foydalanishi mumkin,

O'quvchilarning fikrlash qobiliyati bilan bog'liq malaka va ko'nikmalariga quyidagilarni kiritish mumkin.

1.Tarixiy bilim beruvchi manbalarni tahlil qilish, tarixiy voqe va hodisalardagi eng asosiy, muhim narsalarni ajrata olish, tarixiy tushunchalarga ta'riflar berishga o'rgatish.

2.Tarixiy hodisalarning joyini aniqlash, tarixiy xaritani tilga kiritish.

3.Tarixiy voqealar va hodisalarni taqqoslash, qiyoslash.

4.Axborotlar, ma'ruzalar, referatlar tayyorlash, kichik badiiy-tarixiy asarlarni tahlil etishga o'rgatish.

Dunyoqarashning shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan ana shu malakalarni takomillashtirib borish o'z-o'zidan o'quvchida erkin fikrlash qobiliyatining shakllanishiga olib keladi. Maktab davri shaxsning shakllanish jarayoni kechayotgan bosqich hisob-lanadi. Shu davrda o'z fikrini dadil aytishga, o'z qarashlarini himoya etishga odatlantirish, birovdan cho'chib turadigan, bo'yni qisiq,, boshi egik bo'lib, o'zgalar irodasini ijro etishga ko'nikkan o'smir hech qachon shaxs bo'lib shakllana olmaydi.

Shuning uchun o'quvchi shaxsini shakllantirishda bahs-munozara darslarini tashkil qilish muhim ahamiyatga ega, Bahs o'quvchida fikrlash, mustaqil mushoha-da yuritish qobiliyatini rivojlantirishga chorlaydi. Bahs-munozara darslarini tashkil qilish uchun avvalo, baxsli vaziyatni vujudga keltirish lozim. Bola muammo bilan to'qnashganda fikrlay boshlaydi. Bola faoliyati qanchalik erkin bo'lsa, hurligiga

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

daxlqilinmasa unda shaxs tuyg'usi shakllanadi. Bahs jarayonida o'quvchilar qiy-nalib qolganida o'qituvchi yordamga kelishi, bahsning teng huquqli ishtirok-chisi sifatida o'z fikrini aytishi, keskinlikni yumshatishi, qiyin holatlarda o'quv-chilarga yordam berishi mumkin, lekin o'qituvchi o'quvchi o'rniiga gapirmasligi kerak, chunki bu bolaning mustaqil fikrlash qobiliyatini cheklab qo'yadi. Mayli bola xato xulosalar chiqarsin, o'qituvchiga yoqmaydigan fikrlar aytsin, lekin o'qituvchi shunga erishishi kerakki, bola xatolarini o'zi anglab yetsin, to'g'ri fikrni, xulosani o'zi tonsin. Bu bolada qat'iy fikrlilik, har qanday holatda ham o'z fikrini dadil himoya qilish hissini tarbiyalaydi. Lekin bahs jarayonida o'quvchilarni bir-bir-larining fikrlarini hurmat qilishga o'rgatish ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Ta'lim berishning asosiy shakli dars bo'lganligi tufaylimen har bir o'quvchi dars jarayonining maqsadlaridan birini albatta o'quvchilar tafakkuri va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish qilib belgilashi shart hisoblayman.

Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi, o'zining qadr-qimmatani anglaydigan, irodasi baquvvat, iyemoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonni tarbiyalash imkoniga ega bo'lyapmiz.

1-Prezidentimiz I.A. Karimovning "Tafakkur" jurnali bosh muharriri bilan suhbatida "Fikr karamligi, tafakkur qulligi har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan daxshatliroq" degan so'zining o'ziyoq biz o'qituvchilarga o'z fikriga ega bo'lgan, lozim bo'lsa, o'z mustaqil fikrini himoya qila oladigan, o'zgalar ta'siriga ko'rko'rona mute bo'lib qolmaydigan yoshlarni tarbiyalashdek mas'-uliyatli, mashaqqatli vazifani yuklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi 2017-2021yillarda rivojlanishning besh ustivor yo'nalishi
- 2.Sh.Mirziyoyev -"Zamonaviy maktablarni tashkil berish chora -tadbirlari"
- 3.I.Karimov -"Tafakkur"jurnali muharriri bilan suhbat
- 4.I.Kamolov-"Tarix fanini o'qitish muammo va yechimlari"
- 5."O'zbekiston tarixi" T.Universitet 1999